

Narsalarning asl mohiyatini bilishga olib boradigan
yo'llar – hissiy anglash, rost xabar va aqldir.

Imom Moturidiy

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм



4/2022

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм



ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Музаффар КОМИЛОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Шайх Нуриддин ХОЛИҚНАЗАР – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий

Уйғун ҒАФУРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Шоазим МИНОВАРОВ – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори

Давронбек МАХСУДОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Зоҳиджон ИСЛОМОВ – филология фанлари доктори, профессор

Аҳаджон ҲАСАНОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Шовосил ЗИЁДОВ – тарих фанлари доктори, доцент

Жамолиддин КАРИМОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори

Маҳмуд Эрол ҚИЛИЧ (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCISA Бош директори

Назир Муҳаммад АЙЁД (نظير محمد عياد) – илоҳиёт фанлари доктори, Ал-Азҳар мажмуаси Ислом тадқиқотлари академияси Бош котиби

Режеп ТУЗЖУ (Recep Tuzcu) – илоҳиёт фанлари доктори, профессор, Салжук университети ҳузуридаги Имом Мотуридий тадқиқот маркази директори

Аширбек МУМИНОВ – тарих фанлари доктори, профессор, IRCISA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчиси

Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ (Kamaluddin Nurdin Marjuni) – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири

Дониёр МУРАТОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Одил ЭРНАЗАРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

*Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари
бўйича қўмитасининг 2023 йил 23 ноябрдаги
04-07/8931-сонли хулосаси асосида тайёрланди.*



Муассис:

**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ
АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ**

Бош муҳаррир:

Жамолиддин Каримов,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Муҳаррир ўринбосари:

Зафар Фаҳриддинов,
*Исломишунослик фанлари бўйича
фалсафа доктори*

Саҳифаловчи:

Зарифжон Арслонов

Дизайнер:

Зарифжон Ғуломов

«Мотуридийлик» журнали
Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация
комиссиясининг 2021 йил 30 декабрдаги
310/10-сон қарори билан диссертация асосий илмий
натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий
нашрлар рўйхатида киритилган.

Журнал 2021 йил 12 декабрда Ўзбекистон
Республикаси Президенти Администрацияси
ҳузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги томонидан
№1139 рақами билан рўйхатга олинган.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳар, Шайхонтоҳур тумани,
Абдулла Қодирий кўчаси, 11-уй.

E-mail: maturidijournal.uz

Web-sahifa: info@moturidiy.uz

Телефонлар: (+99871) 244-35-21,
(+99871) 244-35-47

МУНДАРИЖА

ИСЛОМШУНОСЛИК

Zohidjon Islamov. «Муқаддамату-л-адаб» арабча сўзлигининг матний таҳлили.....	5
Ramil Adygamov. Междисциплинарные подходы в исследованиях истории богословия.....	13
Zafar Fakhriddinov. «Вужух ва назоир» илмида ижод қилган олимлар ва унга оид асарлар таҳлили	23
Jurabek Chutmatov. Ҳаким Термизий тафсирининг илк наشري	31
Ahmadkhan Alimov. Абул Лайс тафсири манбалари ва муфассирнинг услублари.....	42

ИСЛОМ ҲУҚУҚИ

Azat Sarsenbaev, Nurulloh Turambetov. Бурҳониддин Марғинонийнинг «Ҳидоя» асарида Куръондан ҳуқуқий манба сифатида фойдаланиш услуби	51
Muhammadnur Murodkhanov, Khaydarali Yunusov. Imom Saraxsiy – xalqaro huquqshunos olim.....	59

ДИНШУНОСЛИК

Nigora Yusupova. Ўзбекистонда давлат қурилиши дунёвийлик принципларига асосланишининг ҳуқуқий асослари	65
Odiljon Ernazarov. Shamsuddin Samarqandiyning xristianlik haqidagi qarashlari	74
Jurabek Sodikov. «Ta'vilot ahl as-sunna»da keltirilgan noislomiy din va e'tiqodlarga oid ma'lumotlar tahlili	80
Shahzoda Abduraimova. Distribution of religious media contents on websites in Germany	90
Behzodbek Soipov. Жамият ижтимоий-сиёсий барқарорлигини таъминлашда бағрикенглик тамойилининг аҳамияти.....	96

ИСЛОМ ТАРИХИ

Sanabar Djurayeva. Toshkent viloyati ziyoratgohlarining tasnifi	103
Muhabbatkhan Agzamova. «Тарих ар-русул ва-л-мулук» асарининг тарихий жараёнларни тадрижий ёритишдаги аҳамияти	108

Lola Azimova.

Марказий Осиё цивилизацияси ривожда илмий масканларнинг ўрни..... 115

Oybek Sotvoldiyev.

«Ат-Табакот ал-кубро» асари – сийрат ва тарожимга оид манба сифатида 122

Zarifjon Arslonov.

Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlarining ilmiy tasnifi va ularda ko‘tarilgan mavzular tahlili 130

ИСЛОМ МАНБАШУНОСЛИГИ

Doniyor Muratov.

Арбаин жанри хусусида 139

Akmalkhan Akmalkhanov.

«Miftoh al-ulum» asarida bir harfdan iborat yordamchi so‘zlar talqini 148

Dilfuza Sagdullaeva.

Рабғузий ижодида оятларни қўллашнинг услубий хусусиятлари 156

Feruza Nizamova.

Dehlaviy ijodida badiiyat an‘analari 163

Bahodirjon Azamov.

Ҳақим Термизий «ал-Амсол мин ал-Китоб вас-сунна» асарининг манбашунослик таҳлили 171

Sanabar N. DJURAYEVA,
Doctor of Historical Sciences,
National University of Uzbekistan.
Universitet str. 4, 100174, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: sanabar.djuraeva@bk.ru

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023/4/13

TOSHKENT VILOYATI ZIYORATGOHLARINING TASNIFI

CLASSIFICATION OF HOLY SITES OF TASHKENT REGION

КЛАССИФИКАЦИЯ МЕСТ ПАЛОМНИЧЕСТВА ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

KIRISH

IX-XI asrlarda Shoshda islom madaniyatining o'ziga xos namunalarini birlashtirgan masjid-madrasalar, X asrdan boshlab esa islom ilmlari rivojiga katta hissa qo'shgan avliyolar, allomalar, faqihlar, shayx va imomlar qabrlari ustiga o'ziga xos sharq arxitekturasi uslubida me'moriy yodgorliklar qurilgan. XV asr oxiri XVI asr boshlarida Toshkent shahri va viloyati iqtisodiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy jihatdan yuksalish pallasiga chiqqan. Aynan o'sha yillarda Ko'kaldosh (XIV asr) va Baroqxon (XV-XVI asrlar) madrasalari, Shayx Xovandi Tohur (XV asr), Qaldirg'ochbiy (XV asr), Yunusxon (XV-XVI asrlar), Qaffol Shoshiy (X-XVI asrlar) maqbaralari qurilgan. Islom me'moriy obidalarining shakllanish jarayoni XIX asrgacha davom etgan. Qadimda Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan Toshkent shahri O'rta Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan. Bu Shoshning ma'muriy, diniy, harbiy, siyosiy, hunarmandchilik, savdo va yirik madaniy markaz sifatida rivojlanganini ko'rsatadi.

ASOSIY QISM

Toshkentning qadimgi va o'rta asrlar tarixi, madaniy yodgorliklari arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar, arxiv hujjatlari, sovet davri tadqiqotlari, mahalliy gazeta ma'lumotlari, mustaqillik davridagi ilmiy izlanishlar asosida olimlar tomonidan ancha yaxshi o'rganilgan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, Toshkent tarixining madaniy qismi bo'lgan arxitektura

yodgorliklari kompleks o'rganilib bir tizimga solinmagan. Mazkur tadqiqotda XIV asrdan to XXI asr boshlariga qadar Toshkent shahrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy hayoti, shaharsozligi, arxitektura yodgorliklarining tarixshunosligi, kompleks tadqiqi va qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

O'zbekiston mustaqil bo'lgach, Shosh (Toshkent) tarixini, xolisona, haqqoniy o'rganish tarixchi olimlar va tadqiqotchilar oldiga muhim masala qilib qo'yildi.

MUHOKAMA

Toshkent dahalari shu yerda yashab faoliyat yuritgan alloma, tasavvuf vakillari: Shayx Xovandi Tohur, Hazrat Imom Qaffol Shoshiy, Zangiota, Shayx Zayniddin nomi bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Hazrat Imom Qaffol Shoshiy dahasi Sebzor, Shayx Zayniddin dahasi Ko'kcha, Zangiota dahasi Beshog'och nomi bilan atalgan. Ushbu tarixiy toponimlarning har birida ma'lum tarixiylik aks etgan.

«Shayxontohur» toponimi ko'p o'zakli murakkab antropotoponim bo'lib, «shayx», «xovand», «tahir» so'zlaridan tarkib topgan va XIV asrda yashagan mashhur shaxs Shayx Xovandi Tahur ismining biroz qisqartirilgan shaklidir.

«Hast Imom» (Hazrat Imom Qaffol Shoshiy) dahasi iste'molda ko'proq Sebzor deb atalgan. «Hazrat Imom» dahasining nomi ham murakkab antropotoponimlar guruhiga kiradi va tarixiy shaxs Abu Bakr Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol Shoshiy (904-976-yy.) unvonidan olingan. Qaffol Shoshiyning ismi kundalik iste'molda qisqartirilib, «Hast Imom» shaklida talaffuz qilingan. Ayni paytda dahaning «Sebzor» degan nomi ham saqlangan. «Sebzor» qo'shma toponim, «seb» (forscha «seb» - «olma») va «zor» qismlaridan tuzilgan, «olmazor» degan ma'noni anglatadi. Ya'ni, Sebzor dahasi olmazor, umuman bog'lari ko'p yer bo'lgan. Zangiota dahasi, xalq orasida ko'proq «Beshyog'och», deb nomlangan «Zangiota» qo'shma toponim, («zangi» - «qora», «ota» - «shayx», «pir») antropotoponimlar guruhiga mansub.

Dahaning nomi Zangiota nomi bilan mashhur bo'lgan mutasavvif shayx Oyxo'ja ibn Tojxo'ja (vafoti 1258-y.) sharafiga shunday atalgan. Zangiota «podachilar piri» sifatida mashhur bo'lgan, shu sababdan uni ko'pincha Cho'ponota, deb ham ataganlar. Dahaning ikkinchi atalishi «Beshyog'och», qo'shma toponim bo'lib, «besh» va «yog'och» qismlaridan tashkil topgan («og'och» yoki «yog'och» masofa o'lchov birligini anglatgan, taxminan 7-8 km.). Beshyog'och «beshinchi yog'och» eski Toshkentdan hisoblaganda beshinchi karvonsaroy ma'nosida ham talqin qilinadi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonning poytaxti Toshkent (Shosh) tarixi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar, dala tadqiqotlari, jumladan, Turkistonda Rossiya imperiyasi bosqini, Toshkentda Rus hukmronligiga qarshi xalq ozodlik qo'zg'olonlari, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Toshkentda ijtimoiy-siyosiy hayot, Rossiya bosqinidan keyin Toshkentning eski shahar va yangi shahar qismidagi yangi o'zgarishlar haqida olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilingan. Shu bilan birga Toshkentning o'rta asrlardagi shaharsozligi, daha va darvozalari, mahallalari, shahar toponimikasi, buyuk allomalari nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar, masjid- madrasalari haqida turli xil tadqiqotlar o'rganilib, tarixshunosligi keltirilgan. Hozirgi kunda respublikamizda turizmning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi, bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar, olib borilayotgan islohotlar, moddiy merosimiz bo'lgan tarixiy, madaniy obyektlarga munosabat, ularni asrab-avaylash, u yerda madaniy ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar masalasi yoritilgan. Bugungi kunda Toshkentdagi me'moriy yodgorliklar, jumladan ziyoratgohlari, masjid va madrasalari, diqqatga sazovor joylariga xorijiy va mahalliy turistlarni jalb qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shosh, Toshkent, olim, alloma, yodgorlik, maqbara, masjid, madrasa, ziyoratgoh, arxitektura, topografiya, toponimiya, etnografiya, manba, arxiv, mustamlaka, mustaqillik.

Abstract. The article analyzes the scientific research conducted on the history of the capital of Uzbekistan - Tashkent (Shash) during the years of independence, field research, including the invasion of the Russian Empire in Turkestan, the people's liberation uprisings against the Russian rule in Tashkent, the 21st century scientific researches of scientists about the socio-political life in Tashkent in the second half and the beginning of the 20th century, new changes in the old city and the new city of Tashkent after the Russian invasion. At the same time, the article explores various research works about the medieval urban planning of Tashkent, its dahas (quarters) and gates, neighborhoods, toponymy of the city, shrines, mosques, and madrasas related to the names of great scholars. In the article, the fact that tourism has risen to the level of state policy in our republic, the decisions and decrees adopted by our state in this regard, the reforms being carried out, the attitude to historical and cultural objects that are our material heritage, their preservation, and the development of cultural pilgrimage tourism, and the issue of the measures being implemented is highlighted. Today, issues of attracting foreign and local tourists to the architectural monuments of Tashkent, including shrines, mosques, madrasas, and sightseeing places are highlighted.

Keywords: Shash, Tashkent, scientist, scholar, monument, mausoleum, mosque, madrasah, shrine, architecture, topography, toponymy, ethnography, source, archive, colony, independence.

Аннотация. В статье проведены научные и полевые исследования, посвященные истории Ташкента (Шоша), столицы Узбекистана, в годы независимости, в том числе вторжения Российской империи в Туркестан, народно-освободительных восстаний против русского владычества в Ташкенте, общественно-политическая жизнь Ташкента во второй половине 19 века и начале 20 века, Россия. После нашествия проанализированы научные изыскания ученых о новых изменениях старого города и нового города Ташкента. Вместе с тем, в статье рассматриваются различные исследовательские работы о средневековом градостроительстве Ташкента, его дахах (кварталах) и воротах, махаллях, топонимике города, святынях, мечетях и медресе, связанных с именами великих ученых. В статье рассмотрено то, что туризм поднялся на уровень государственной политики в нашей республике, решения и постановления, принятые нашим государством в этой связи, проводимые реформы, отношение к объектам истории и культуры, являющимся нашим материальным достоянием. Освещены вопросы их сохранения и развития культурно-паломнического туризма, а также вопрос реализуемых мер. Сегодня освещаются вопросы привлечения иностранных и местных туристов к архитектурным памятникам Ташкента, в том числе святыням, мечетям, медресе, достопримечательностям.

Ключевые слова: Шаш, Ташкент, ученый, ученый, памятник, мавзолей, мечеть, медресе, святыня, архитектура, топография, топономия, этнография, источник, архив, колония, независимость.

Shayx Zayniddin dahasi xalq orasida ko'proq Ko'kcha, deb atalgan. «Shayx Zayniddin» joy nomi ikki so'zdan tashkil topgan murakkab toponim bo'lib, antropotoponimlar guruhiga kiradi va XII asrda yashab o'tgan mashhur Shayx Zayniddin ismidan olingan.

O'z davrining ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan Muhammad Solihxo'ja Toshkandiyning hayot-faoliyati, Toshkent shahrining XIX asrdagi madaniy-ma'naviy

hayoti, hududi, topografiyasi, tarixi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yoritilgan. «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Toshkent shahridagi Xoja Ahror madrasasi, Ko'kaldosh, Muhammad Alixon, Eshonquli Dodhoh, Qosimboy Tutiy, Mahmud dasturxonchi, Baroqxon, Mo'yi Muborak, Beklarbegi, Shukurxon madrasasi (1), Shukurxon madrasasi (2), Isoxo'ja qozi, Jumanbiy, Hofiz Ko'hakiy madrasasi, Muhammad Karimxo'ja

xalifa, Eshon Bo'rixo'ja Sanchiqmoniy, Sharafibiy, Normuhammad Qushbegi va Abulqosimxon kabi 20 ta madrasa faoliyati to'g'risida (12:142-162), shu bilan birga Shayx Xovandi Tohur, Qaldirg'ochbiy, Yunusxon maqbaralari, Ko'kto'nli ota, Xo'ja Dovud, Xo'ja Ro'shnoyi, Boboi Obrez, Hazrat Ukkosha, Ko'h ota, Ibrohim ota, Ko'hakiy ota, Shayx Zayniddin Ko'hi Orifoniy, Zargiota, Suzuk ota, Xoja Nuriddin, Xoja Allambardor, Chimir ota, Arslonbob ziyoratgohlari haqida boshqa manbalarda uchramaydigan qimmatli ma'lumotlar keltirilgan (Sultonov O., 2007:166:189).

Shu bilan birga O'.Sultonov Toshkent tarixiy-madaniy hududida vaqf mulklarining to'rt asrlik tarixiga oid ilmiy izlanishlar olib bordi. Unda Toshkent vaqf mulklariga aloqador turli rasmiy-huquqiy hujjatlar musulmon diplomatikasi tadqiqot uslublari kontekstida o'rganildi. Shuningdek, ushbu hujjatlar asosida Toshkent vaqf mulkchiligining o'rtasrlar hamda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi o'ziga xos an'analari mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayoti bilan hamohang tadqiq etildi (Sultonov O., 2021:368).

Shuningdek, O'z MDAda O'zbekistonning mustaqillik davri tarixi bilan bevosita bog'liq arxiv hujjatlari jamlangan. M-fondlar ham arxitektura, madaniyat qurilish sohasiga doir tarixiy va boshqa jarayonlarga tegishli ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan. Masalan, M-7, M-38 fondlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi jamg'armasida hamda M-35 fondida ham madaniy-tarixiy boyliklarni saqlash yuzasidan davlat ahamiyatiga oid farmon, qonun va farmoyishlar, ularning bajarilishi yuzasidan tadbirlar, O'zbekistonda tarixiy-madaniy yodgorliklar ro'yxatiga oid hujjatlar mavjud.

Toshkent arxitektura yodgorliklari, ziyoratgohlarining manbashunosligi, tarixshunosligi, madaniy obyektlarning geografik joylashuvi, shaxslar nomi bilan bog'liq personifikatsiyasi, shakllanish va rivojlanish tarixi, mustaqillik yillarida Toshkent madaniy obyektlari tiklanishi, ziyorat turizmini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati haqida kompleks ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan.

NATIJA

Turizm yo'nalishi bugungi kunda jahon davlatlarida ustuvor sohaga aylangan bir vaqtda mamlakatimizda tabiiy, ma'naviy, madaniy, moddiy merosimiz bilan bog'liq ziyorat turizmi salohiyatini

rivojlantirish, u yerga mahalliy aholi bilan birga xorijiy turistlarni ham jalb qilish davlat istiqbolini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevralda «O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6165-sonli Farmoni qabul qilindi. 2021-yil 24-fevralda Vazirlar Mahkamasining «Ichki va ziyorat turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 100-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, ushbu qaror bo'yicha respublikada ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish maqsadida O'zbekistondagi turizm obyektlari ro'yxati shakllantirilib, turizm boshqarmasiga taqdim etilgan. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3 martda «Moddiy-madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 119-sonli qarori qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PF6199-son «Turizm, sport va madaniy meros sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni asosida Turizm va sport vazirligi faoliyati tashkil etildi. 2023-yil yanvar oyidan Madaniyat vazirligi bilan Turizm va sport vazirligi birlashib, O'zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi sifatida o'z faoliyatini boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi «Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-135-son qarori asosida Respublikaning turizm salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda transport-logistika va turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, shuningdek mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsad qilib qo'yildi.

Bu borada bugungi kunda O'zbekistonda turizmni yuksaltirish uchun turistik obyektlarning mintaqalardagi imkoniyatlarini tadqiq etish, jumladan, tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklari, qadamjolar ziyoratgohlar, tabiiy landshaft va rekreatsiya resurslaridan to'g'ri va samarali foydalanish yo'llarini ilmiy asosda o'rganish va tegishli amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish katta ahamiyatga ega.

Ziyoratgohlarga tashrif turizm sohasi bilan bog'liq bo'lib, bu XXI asrda dunyo miqyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylangan. Hozir u avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi. Turizm sohasini

rivojlantirish milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Toshkent allomalari, din bilan bog'liq tarixiy me'moriy obyektlari, ziyoratgohlari haqida ma'lumotlar qo'lyozma manbalar, ilmiy va ommabop adabiyotlarda kelgan bo'lsa-da, ular kompleks tadqiq qilinmagan. Ushbu tadqiqotda Toshkentdagi alloma, tasavvuf vakillari, avliyolar nomi bilan bog'liq ziyoratgohlar, madaniy-tarixiy yodgorliklar birlamchi manbalar, sayohatchilar esdaliklari, arxiv materiallari, qo'shimcha geografik adabiyotlar, arxeolog, arxitektorlarning ilmiy izlanishlari, ilmiy va ommabop ma'lumotlar, dala tadqiqotlari asosida kompleks o'rganildi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki bugun Respublikamizda mavjud arxitektura yodgorliklari ziyoratgoh, maqbara, qadamjolar xalqimizning diniy va milliy qadriyatlaridan biri sanaladi. Vatanimiz tuprog'ida xoki yotgan shaxslar hayoti, faoliyati, ziyoratgohlar tarixi, u yerdagi urf-odatlarini o'rganish, ma'naviy merosimiz sifatida yosh avlodga yetkazish, respublika, viloyat, tuman miqyosidagi ziyoratgohlarning musulmon olamidagi mavqeyini oshirish, u yerga mahalliy va xorijiy ziyoratchilarni jalb etish, ziyorat turizmini rivojlantirish oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Toshkent arxitektura yodgorliklari, ziyoratgohlari va muqaddas qadamjolarining o'rganilganlik darajasi, tarixshunosligi tahlili bo'yicha mavzu borasida, fanlar kesimida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu tadqiqotlarda keltirilgan manbalar, arxiv materiallari, tarixiy-badiiy adabiyotlar muhim manba vazifasini bajaradi. Toshkent tarixi, shahar qurilishi, tarixiy obyektlari, maqbara masjid, madrasalari, aholi turmush tarzini yoritishda yozma manbalar, ularni solishtirish, qiyoslash obyektiv ma'lumotlarni aniqlash imkonini beradi. Manbalar asosida Toshkent tarixi, arxitektura yodgorliklari, ziyoratgohlarning tarixini o'rganish, mamlakatimizda mahalliy va xorijiy ziyorat turizmini rivojlantirish, yangi loyihalarga asos bo'ladi. Shu jihatdan mazkur mavzusini o'rganish bugungi kunda muhim va dolzarb ahamiyatga egadir.

Milliy qadriyatlarimizning bir bo'laki bo'lgan ziyorat turizmi jahon miqyosida O'zbekiston hududi shunday tarixiy qadriyatlar makoni bo'lganligini, o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ro'yobga chiqarayotgan xalqimiz uchun buyuk kelajak barpo

etishda, bugungi dunyoni yangi ko'z bilan ko'rish, uni yangicha tafakkur bilan idrok etish jarayonlarida, ulug' ajdodlar merosi bilan tanishish lozimligini anglatadi. Bugun yo'qotilgan barcha qadriyatlarni, boy berilgan madaniy va ma'naviy boyliklarni qaytadan to'plash, an'analarni tiklash, o'z milliy qiyofasi bilan O'zbekistonning jahon xalqlari safidan munosib o'rin egallashi yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni qayta tiklash, o'zligimiz, insoniy his-tuyg'ularimizni, sha'nimiz va oriyatimizni himoya qilishga, uni hamisha baland tutishga va xalqaro miqyosda o'rnmimizga ega bo'lishda muhim ahamiyat kasb etadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahimova N., Ergashev F. (2002). Turkistonda Rossiya mustamlaka tizimi. Toshkent: Akademiya.
2. Ziyoyev H. (1998). Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent: Sharq.
3. Ziyoyev H. (2006). O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. Toshkent: Sharq. – 352 b.
4. Yunusova X. (1998). Toshkentda 1812 yilgi xalq qo'zg'oloni. Toshkent.
5. Ismoilova J. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Toshkentning «yangi shahar» qismi tarixi. Toshkent, 2004.
6. Ziyayeva D. (2017). O'zbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida: shahar madaniyati va urbanizatsiya jarayonlari. Toshkent: Yangi nashr.
7. Пулатов X. (1994). Архитектурно-Планировочная структура старого Ташкента. Конес XIX-начало XX века. Дисс... канд. арх.наук. Ташкент.
8. Alimova D.A., Filanovich M.I. (2009). Toshkent tarixi (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha). Toshkent: «SRT FLEX».
9. Muhamedov N. (2011). Shosh vohasi olimlarining Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyatida tutgan o'rni. Toshkent: «Movarounnahr».
10. Shamsiddinov R., Rasulov B. (1995). Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX oxiri – XX asr boshlari). Andijon.
11. Bo'riyeva X. (2009). Toshkent shahrining tarixiy toponomiyasi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Toshkent: «Noshirlik yog'dusi», 2009.B.31.
12. Sultonov O'. (2007). Muhammad Solihxo'ja va uning»Tarixi jadidayi Toshkand»asari. Toshkent: O'zbekiston.
13. Sultonov O'.A. (2021). Toshkent vaqf mulklari tarixi: tarixiy hujjatlar tadqiqi va talqini (1507-1917). Toshkent: Fan.
14. Alimova D., Filanovich M., Hakimov A. va boshq; (2007). Toshkent-islom madaniyati gavhari: Fotoalbom. Toshkent: O'zbekiston.

15. Muhamedov N. (2007). Shosh vohasi olimlarining ilmiy-ma'naviy merosi. Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.
16. Muhammadkarimov A. (2009). Toshkentnoma. Toshkent: Yangi asr avlodi.
17. Salixov Sh., Alimova D., Pidayev Sh. O'zbekiston poytaxti Toshkent 2200 yoshda // Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent: Fan, 2009.
18. Muhammadkarimov A., Obidov A., Iskandarov Z. (2016). Toshkentning tabarruk ziyoratgohlari. Toshkent: «NAVROZ».
19. Eshmirzayeva Z. (2020). Shosh va Iloq yo'llarida. Ilmiy-publisistik maqolalar. Tadqiqotlar. Toshkent: «Oltin meros press».
20. Tangirov O.E. (2022). XIX asr oxiri XX asr boshlarida Toshkent «eski shahar» qismi ma'muriy boshqaruvi va ijtimoiy xolati. Toshkent: «Renessans press» nashriyoti.
21. Muhamedov N. (2018). Hastimom-Abu Bakr Qaffol Shoshiy tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi.
22. Ozod Mo'min Xo'ja. (2018). Shayx Zayniddin Toshkandiy-olim va valiy (1164-1259). Toshkent: «Movarounnahr».
23. Obidov A., Mirzahoshimova N. (2022). Suzukota ziyoratgohi. Toshkent: Lesson press.
24. Muhamedov Y. (2021). Choch vohasidagi G'arbiy Turk xoqonligi boshqaruvi: Tarix fan. fals.doktor...diss. Toshkent.
25. Muhamedov N. (2019). O'rta asrlarda Shosh vohasi olimlarining islom madaniyati va ilm-faniga qo'shgan hissasi: tarix fan.doktor...diss. Toshkent.
26. Bo'riyeva X. (2022). Toshkent shahrining 1917-2007 yillardagi toponomiyasi va uning tarixiy aspektlari: Tarix fan. doktor...diss. Toshkent.
27. Ziyayev A. (2020). Trodstroitel'naya kultura i zodchestvo Tashkenta: Arxitektura fan. doktor...diss.-Toshkent.
28. Gafurova I. (2022). Turkistonda islom me'moriy obidalari (XIX asr oxiri XX asr boshi): Tarix fan. fals.doktor...Avtoref. Toshkent.
7. Pulatov X. (1994). Arxitekturo-Planirovochnaya struktura staroga Tashkenta. Kones XIX-nachalo XX veka. Doctoral dissertation on history. Toshkent.
8. Alimova D.A., Filanovich M.I. (2009). Toshkent tarixi (Qadimgi davrlardan bugungi kungacha). Toshkent: «SRT FLEX».
9. Muhamedov N. (2011). Shosh vohasi olimlarining Markaziy Osiyo ilm-fani va madaniyatida tutgan o'rni. Toshkent: «Movarounnahr».
10. Shamsiddinov R., Rasulov B. (1995). Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX oxiri – XX asr boshlari). Andijon.
11. Bo'riyeva X. (2009). Toshkent shahrining tarixiy toponomiyasi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Toshkent: «Noshirlik yog'dusi», 2009.B.31.
12. O'.A.Sultonov. (2007). Muhammad Solihxo'ja va uning»Tarixi jadidayi Toshkand»asari. Tashkent: O'zbekiston.
13. Sultonov O'.A. (2021). Toshkent vaqf mulklari tarixi: tarixiy hujjatlar tadqiqi va talqini (1507-1917). Toshkent: Fan.
14. Alimova D., Filanovich M., Hakimov A. va boshq; (2007). Toshkent-islom madaniyati gavhari: Fotoalbom. Toshkent: O'zbekiston.
15. Muhamedov N. (2007). Shosh vohasi olimlarining ilmiy-ma'naviy merosi. Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi.
16. Muhammadkarimov A. (2009). Toshkentnoma. Toshkent: Yangi asr avlodi.
17. Salixov Sh., Alimova D., Pidayev Sh. O'zbekiston poytaxti Toshkent 2200 yoshda // Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent: Fan, 2009.
18. Muhammadkarimov A., Obidov A., Iskandarov Z. (2016). Toshkentning tabarruk ziyoratgohlari. Toshkent: «NAVROZ».
19. Eshmirzayeva Z. (2020). Shosh va Iloq yo'llarida. Ilmiy-publisistik maqolalar. Tadqiqotlar. Toshkent: «Oltin meros press».
20. Tangirov O.E. (2022). XIX asr oxiri XX asr boshlarida Toshkent «eski shahar» qismi ma'muriy boshqaruvi va ijtimoiy xolati. Toshkent: «Renessans press» nashriyoti.
21. Muhamedov N. (2018). Hastimom-Abu Bakr Qaffol Shoshiy tarixi. Toshkent: Yangi asr avlodi.
22. Ozod Mo'min Xo'ja. (2018). Shayx Zayniddin Toshkandiy-olim va valiy (1164-1259). Tashkent: «Movarounnahr».
23. Obidov A., Mirzahoshimova N. (2022). Suzukota ziyoratgohi. Toshkent: Lesson press.
24. Muhamedov Y. (2021). Choch vohasidagi G'arbiy Turk xoqonligi boshqaruvi: Doctoral dissertation on history. diss. Tashkent.
25. Muhamedov N. (2019). O'rta asrlarda Shosh vohasi olimlarining islom madaniyati va ilm-faniga qo'shgan hissasi: Doctoral dissertation on history. Toshkent.
26. Bo'riyeva X. (2022). Toshkent shahrining 1917-2007 yillardagi toponomiyasi va uning tarixiy aspektlari: Doctoral dissertation on history. Toshkent.
27. Ziyayev A. (2020). Trodstroitel'naya kultura i zodchestvo Tashkenta: Doctoral dissertation.- Toshkent.
28. Gafurova I. (2022). Turkistonda islom me'moriy obidalari (XIX asr oxiri XX asr boshi): Abstract of Doctoral dissertation on history. Toshkent.

REFERENCES

1. Abdurahimova N., Ergashev F. (2002). Turkistonda Rossiya mustamlaka tizimi. Toshkent: Akademiya.
2. Ziyoyev H. (1998). Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. Toshkent: Sharq.
3. Ziyoyev H. (2006). O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida. Toshkent: Sharq. – 352 b.
4. Yunusova X. (1998). Toshkentda 1812 yilgi xalq qo'zg'oloni. Toshkent.
5. Ismoilova J. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Toshkentning «yangi shahar» qismi tarixi. Toshkent, 2004.
6. Ziyayeva D. (2017). O'zbekiston shaharlari XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida: shahar madaniyati va urbanizatsiya jarayonlari. Toshkent: Yangi nashr.

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНИНГ
«МОТУРИДИЙЛИК» ЖУРНАЛИ

Мазкур нашр олий ўқув юрглари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг профессор-ўқитувчилари, докторантлари,
мустақил тадқиқотчилари, магистрантлари,
талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Таҳририят фикри муаллиф нуқтаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.
Журналдан кўчирма олинганда манба қайд этилиши шарт.

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

4/2023

Бош муҳаррир: **Ж.Каримов**

Муҳаррир: **З.Фахриддинов**

Нашр учун масъул: **З.Арслонов**

Чет тилларидаги матнлар муҳаррири: **О.Сотволдиев**

Дизайнер-саҳифаловчи: **З.Ғуломов**

Манзилимиз: Ўзбекистон халқаро ислом академияси Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази,
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.

Тел: (+99871) 244-35-47, (+99871) 244-35-36. **Web:** www.maturidijournal.uz

E-mail: info@maturidiy.uz

Нашриётнинг лицензия рақами АІ № 0011. 06.05.2019 йил.
Босишга 28.12.2023 йил рухсат этилди. Бичими 60×84 ¼.
Ризограф усулда босилди. Шартли босма табағи 10,2.
Нашр табағи 10,4. Буюртма № 20.
Баҳоси шартнома асосида.

«Ўзбекистон халқаро ислом академияси»
нашриёт-матбаа бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.



IMOM MOTURIDIY

XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CENTER

المركز الدولي للبحوث العلمية

 moturidiyuz

 www.moturidiy.uz

 +99871 244-35-36